


## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-sentabr)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, %



- B** Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash
- C** Ishlab chiqaradigan sanoat
- D** Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan 5414,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 102,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,8 % ni tashkil etdi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 2,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda 5,8 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1,9 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 58,2 % ga pasayishi kuzatildi.



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2966,3 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 54,8 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 212,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 7,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali 94,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 576,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 19,4 %), quyi texnologiyali 2082,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 70,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	27,4	31,9	4,5
Aroq, ming l. 100 % spirt	804,4	1229,8	425,4
Sellyuloza, ming tonna 90 %	1000,0	1329,9	329,9
Paxta tolasi, ming tonna	17,2	24,1	6,9
Yigirilgan ip, tonna	2354,2	1971,4	-382,8
Paxta chigiti, ming tonna	26,9	36,0	9,1
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,6	2,0	0,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	18,8	24,1	5,3
Etilen polimer qoplar, ming tonna	13,4	13,2	-0,2
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln. kVt/s	10680,7	10216,7	-464
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	74,9	55,5	-19,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**31,9**  
ming tonna



Aroq

**1229,8**  
ming l. 100 % spirt




Sellyuloza

**1329,9**  
ming tonna 90 %



Paxta chigiti

**36,0**  
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

**2,0**  
ming tonna



Yigirilgan ip

**1971,4**  
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta tolasi

**24,1**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**13,2**  
*ming tonna*



Soapstok

**121,9**  
*tonna*



Issqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

**10216,7**  
*mln. kVt/s*



Bug' va issiq suv (issqlik energiyasi)

**64,2**  
*ming Gkal*




Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa

**24,1**  
*ming tonna*



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2403,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,4 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,9 % ga oshganligi kuzatildi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,8 % ga oshganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1846,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 20,7 % ga pasayishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 34,1 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 47,3 % dan 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 48,5 % ga oshganligi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,3 % ni (2019-yil yanvar-sentabr oylarida 1,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 32,6 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,9 % ni, Yangiyer shahri 9,5 % ni hamda Sayxunobod tumanida 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (79,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sayxunobod tumanida (98,0 %), Sardoba tumanida (97,1 %), Xovos tumanida (96,2 %), Yangiyer shahrida (94,8 %), Mirzaobod tumanida (90,3 %) va Guliston shahrida (89,6 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)


	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1846,4</b>	<b>100,0</b>	<b>79,3</b>
<b>Guliston sh</b>	312,9	16,9	89,6
<b>Shirin sh</b>	21,3	1,2	69,4
<b>Yangiyer sh</b>	175,6	9,5	94,8
<i>tumanlar:</i>			
<b>Boyovut</b>	128,8	7,0	41,3
<b>Guliston</b>	47,9	2,6	70,1
<b>Mirzaobod</b>	141,4	7,7	90,3
<b>Oqoltin</b>	53,3	2,9	73,3
<b>Sardoba</b>	75,9	4,1	97,1
<b>Sayxunobod</b>	144,4	7,8	98,0
<b>Sirdaryo</b>	602,8	32,6	77,2
<b>Xovos</b>	142,1	7,7	96,2

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 900,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil  
yanvar-sentabr



Xorijiy Investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar

2020-yil  
yanvar-sentabr



Boshqa korxonalar




**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2020-yil yanvar-sentabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>5414,6</b>	<b>102,0</b>
Guliston sh	619,2	108,7
Shirin sh	2249,7	100,5
Yangiyer sh	407,8	125,5
<b>tumanlar:</b>		
Boyovut	239,7	107,5
Guliston	81,5	109,2
Mirzaobod	256,5	112,4
Oqoltin	122,8	97,7
Sardoba	91,1	93,0
Sayxunobod	235,9	107,7
Sirdaryo	963,1	94,2
Xovos	147,3	101,4



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,5 %), Sirdaryo tumani (17,8 %), Guliston shahri (11,4 %), hamda Yangiyer shahri (7,5 %), Mirzaobod tumani (4,7 %), Boyovut (4,4 %) va Sayxunobod (4,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xovos tumani (2,7 %), Oqoltin tumani (2,3 %), Sardoba tumani (1,7 %) hamda Guliston tumaniga (1,5 %), to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish**  
(2020-yil yanvar-sentabr oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>6358,2</b>	<b>2168,1</b>
Guliston sh	6804,1	3439,0
Shirin sh	119668,6	1133,6
Yangiyer sh	9377,7	4036,5
<b>tumanlar:</b>		
Boyovut	1840,9	989,1
Guliston	1116,5	655,8
Mirzaobod	3470,8	1914,0
Oqoltin	2347,2	1018,5
Sardoba	1374,1	1144,3
Sayxunobod	3035,5	1858,3
Sirdaryo	7471,4	4676,2
Xovos	1534,3	1480,6

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi  
(2019-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, % da)




Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi  
(2020-yil yanvar-sentabr oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1719,7</b>	<b>31,8</b>
Guliston sh	244,0	39,4
Shirin sh	21,2	0,9
Yangiyer sh	220,6	54,1
<b>tumanlar:</b>		
Boyovut	213,8	89,2
Guliston	47,7	58,5
Mirzaobod	139,4	54,3
Oqoltin	36,4	29,7
Sardoba	58,6	64,3
Sayxunobod	127,9	54,2
Sirdaryo	543,7	56,5
Xovos	66,4	45,1

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2180,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 81,7%), Guliston shahri (81,2 %), Xovos (74,1 %), Sirdaryo (68,1 %), Mirzaobod tumani (66,2 %), Yangiyer shahri (62,3 %), hamda Boyovut (60,7 %), tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Guliston tumani (59,5 %), Sayxunobod tumani (58,7 %), Oqoltin tumani (48,4 %) hamda Shirin shahrida (1,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2021 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 533 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,4 %) Guliston shahriga, 338 tasi (16,7 %) Sirdaryo tumaniga, 186 tasi (9,2 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 444 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 40,8 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sayxunobod tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o`shish sur`atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 25 ta loyiha bo`yicha 166,1 mlrd. so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo`lib, jami sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 3,1 % ni tashkil etdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2405,3 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilindi, jami viloyat eksport hajmining 2,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yilning yanvar-sentabrga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining o`shishi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	7	25
Korxonalar soni, birlik	6	15
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so`m	181,3	166,1
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollar	2057,1	2405,3
Yaratilgan yangi ish o`rinlari, birlik	329	315

Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23